



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024-YIL YANVAR

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024-yilning 1-fevral holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2 289 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 591 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 25,8 % i Termiz shahrida joylashgan.

2024-yil 1-fevral holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Termiz sh.	591
Jarqo'rg'on t.	205
Termiz t.	187
Denov t.	164
Sariosiyo t.	152
Boysun t.	138
Qumqo'rg'on t.	129
Sho'rchi t.	115
Angor t.	113
Qiziriq t.	109
Sherobod t.	92
Muzrabot t.	83
Oltinsoy t.	79
Bandixon t.	68
Uzun t.	64

1 302

Bino va inshootlar qurilishi

510

Fuqarolik obyektlarini qurish


477

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanida 205 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 9,0 %), Termiz tumanida – 187 ta (8,2 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar uchun)

2024-yilning yanvar oyida, Surxondaryo viloyatida jami 254,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etdi.



2020

241,9
mlrd. soʻm

101,6 %



2021

310,3
mlrd. soʻm

100,2 %

2022

351,7
mlrd. soʻm

100,1 %

2023

228,7
mlrd. soʻm

60,7 %

2024


254,9
mlrd. soʻm

107,2 %

Oldingi yilning mos davriga nisbatan



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2024-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2023-yilning mos davriga nisbati,
mlrd. so‘m va foizda


	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	254,9	107,2	100,0
Termiz sh.	76,0	117,3	29,8
tumanlar:			
Oltinsoy	2,8	108,1	1,1
Angor	6,9	106,8	2,7
Bandixon	3,1	102,0	1,2
Boysun	18,1	110,0	7,1
Muzrabot	8,3	107,4	3,3
Denov	28,6	114,9	11,2
Jarqo‘rg‘on	19,3	110,8	7,6
Qumqo‘rg‘on	10,8	109,4	4,2
Qiziriq	7,9	115,6	3,1
Sariosiyo	33,8	80,5	13,3
Termiz	11,9	110,6	4,7
Uzun	6,2	112,0	2,4
Sherobod	13,6	108,9	5,3
Sho‘rchi	7,6	109,4	3,0

2024-yilning yanvar oyida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (76,0 mlrd. so‘m), Sariosiyo tumani (33,8 mlrd. so‘m) va Denov tumanida (28,6 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024-yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 70,9 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 23,8 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 88,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,3 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024-yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi


Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 73,7 % i yoki 187,9 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

10,3 mlrd. soʻm Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 10,3 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi. **5,5 %**

125,9 mlrd. soʻm Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 125,9 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 67,0 % ni tashkil etdi. **67,0 %**

51,7 mlrd. soʻm Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 51,7 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,5 % ni tashkil etdi. **27,5 %**


Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2024-yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 180,8 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,3 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga kamayib, 70,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,7 % punktga kamayib, 29,6 % ni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar oyida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, *60,7 mlrd. so'm*




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 30,8 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 18,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 69,2 % (18,1 % punktga ko'payish).

2024-yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 13,4 mlrd. so'm




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,7 % punktga kamaydi va 3,7 % ni tashkil etdi.

Qolgan 96,3 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,7 % punktga ko'paydi.


2024-yilning yanvar oyida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
56,7 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
121,4 %




Norasmiy sektor

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
100,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 19,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 56,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 7,1 % ga kamayib, 7,8 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mln. soʻmda



Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Qumqoʻrgʻon tumani


Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 5,8 % i), Sariosiyo tumani (41,9 %) va Qumqoʻrgʻon tumanida (5,1 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024-yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,2 % i to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 121,4 % ni tashkil etgan holda 181,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



2024-yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi, mlrd. so'm



68,5 mlrd.
so'm

Termiz shahri



19,8 mlrd.
so'm

Denov tumani




14,3 mlrd.
so'm

Boysun tumani

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (68,5 mlrd. so'm), Denov tumanida (19,8 mlrd. so'm) va Boysun tumanida (14,3 mlrd. so'm) qayd etildi.

2024-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 21,0 % ni yoki 53,5 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni tashkil etdi. Shundan 48,2 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3,5 mlrd. soʻmni va 100,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 1,8 mlrd. soʻmni va 100,1 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Surxondaryo viloyati



8,7 mlrd. soʻm
Denov tumani



6,1 mlrd. soʻm
Sariosiyo tumani




3,8 mlrd. soʻm
Boysun tumani


Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (8,7 mlrd. soʻm), Sariosiyo tumanida (6,1 mlrd. soʻm) va Boysun tumanida (3,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar oyidagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 3,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 251,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 1,3 % va 98,7 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 76 225-65-59 (7520)